



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

jonli harakati B.Boyqobilov romanida yetishmaydi. Teran his qilmasdan, yurakdan kechirmasdan asar yozish na tafakkur miqyosini yetarlicha ta'minlay oladi, na ruhiy psixologizmni yuzaga chiqaradi. Bayonchilik tarixiy qayd qilish sari yetaklovchi hissiy – emotsional taassurot uyg'otmaydigan qusurlardan biridir.

Shubhasiz, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiy hamkorligi, samimiy do'stona munosabatlari alohida badiiy asarlarga mavzu bo'la oladi. Ular asarlaridagi umuminsoniylikka yo'g'rilgan gumanizm ko'plab ijodkorlar qalbiga ilhom bag'ishlagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.15. – T.: Fan, 1999
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.16. – T.: Fan, 2000
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.17. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan, 2001
4. Oybek. Navoiy. Roman. – T.: O'qituvchi, 1985.
5. Boyqobilov B. Notinch Xuroson. T., 1985; Shukuhli karvon. – T., 1981; Sokin Xuroson. T., 1992; Qonli Xuroson. T., 1992.
6. Omon Muxtor. Navoiy va rassom Abulxayr. – Toshkent. "ShARQ" NMAK Bosh tahririyati, 2006.
7. Yakubov I. O'zbek romani tadriji. – T.: Fan va texnologiya, 2006
8. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi: filol. fanlari dok... diss. – T., 2018. – 248 b.
9. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122.
10. Matyokubova T. The Expression Of The Poet's Feelings In Gafur Gulam's Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. – Pp. 62-64.

ALISHER NAVOIYNING NABOTOT VA HAYVONOT OLAMIGA MUNOSABATI

Hayitov Shavkat Ahmadovich,

filologiya fanlari doktori,

BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi professori

Shoyimova Gulshod Shoyim qizi,

BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi mustaqil izlanuvchisi

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/CMGT1936

Annotatsiya: Hayot, Istiqlol insonni yangicha fikrlashga undamoqda. Ona sayyoramiz muhofazasi istiqbollarini belgilashda faqat tabiiy fanlarga emas, ijtimoiy fanlar ham ishtirok etishi zarur. Zero, madaniy-tarixiy qadriyatlarini chuqur anglagan insongina tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga bepisand bo'lmaydi. Oqibatini o'ylamasdan, ko'r-ko'rona ish tutmaydi. Saxiy tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish yo'llarini izlab topadi.

Kalit so'zlar: Tabiat, tuproq, suv va havo, bog', Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, "Jahonoro" bog'i, sarv nixoli, bir yuz to'rt tup, dasht, kushlar, bo'ri, kiyik, bulbul.

ALISHER NAVAI'S ATTITUDE TO THE WORLD OF PLANTS AND FAUNA

Abstract. This article examines how the concepts of life and independence inspire a shift in human thought, emphasizing the importance of both natural and social sciences in shaping the future of environmental preservation. It argues that individuals who possess a deep understanding of cultural and historical values are more likely to approach nature with

responsibility and foresight. By highlighting the connection between cultural awareness and environmental stewardship, the article suggests that such individuals are less prone to act impulsively and more inclined to seek rational and sustainable ways to utilize nature's resources, considering the long-term consequences of their actions.

Keywords: *Nature, soil, water and air, garden, Alisher Navoi, Huseyn Boykaro, "Jahonaro" garden, cypress sapling, one hundred and four balls, steppe, birds, wolf, deer, nightingale.*

Ekologik talablarga qati rioya qilish, jamiyat azolarining ekologik madaniyatini shakllantirish, yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va nabotot dunyosini himoya qilish muammolari buyuk ajdodlarimizning ham nazaridan hech qachon soqit qolmagan. Ularning faoliyatida ekologik nazorat turlicha mazmun va shaklda namoyon bo'lgan. Biz quyida ona tabiatni asrab-avaylash bilan bog'liq ekologik madaniyatning ajdodlarimiz tajribasida qanday nomoyon bo'lganligini ayrim tarixiy, hayotiy misollar asosida nazardan o'tkazishga harakat qilamiz. Temuriylar davriga oid bazi tarixiy, adabiy manbalarning guvohligiga ko'ra, Xuroson yoki Movarounnahr taxtini qo'lga kiritgan temuriyzoda g'alaba yodgori sifatida bog' barpo etishi o'ziga xos anana tusini olgan. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida ayni masala bilan aloqador g'aroyib voqealar, hayratli holatlar, latif sarguzashtlar, ibratli lavhalar mavjud. Ulug' mutafakkirning "Xamsatul-matahayyirin" manoqibida yozilishicha, Xuroson taxtini qo'lga kiritgan Sulton Husayn Boyqaro o'z g'alabasining yodgori sifatida "Jahonoro" nomli bog' barpo etishni buyurgan. Bog' tarhini tuzish o'sha zamonning shu sohadan mukammal darajada xabardor bo'lgan mashhur bog'bonlaridan Sayyid G'iyosga topshirilgan. Alisher Navoiyning "Xamsatul-matahayyirin" manoqibida malumot berilishicha, naqishbandiya tariqatining murshidi komili, ulug' fors-tojik shoiri Nuriddin Abdurahmon Jomiy o'z pirlari Sadiddin Koshg'ariy vafotidan so'ng o'z yashash manzillarini pirlarining tabarruk maqbarasi yaqiniga ko'chiradilar. U yerda mo'jaz bir hovlicha qurdirib, faqirona hayot kechira boshlaydilar. Sulton Husayn Boyqaro barpo qilishga kirishgan "Jahonoro" bog'i Mavlono Jomiy yashayotgan xiyobon yo'lida bo'lgan. Hazrat Alisher Navoiyning yozishlaricha, kunlarning birida Hirotning Gozurgoh degan manzilidan o'z yashash joyi Xiyobonga qarab ketayotgan Mavlono Jomiy bir arava sarv niholi ko'chatini yuklab ketayotgan Sayyid G'iyosga ro'baro' kelib qoladilar. Shu yerda murshidi komil Abdurahmon Jomiy bilan "Jahonoro" bog'ining tamiri (Alisher Navoiy) Sayyid G'iyos orasida maroqli suhbat, marifatomuz savol-javob bo'lib o'tadi. Hazrat Alisher Navoiyning manoqiblaridan o'qiymiz:

Podshoh ul yilki Xuroson taxtin olmog'dakim, "Jahonoro" bog'i tarhin soldilar. Bir panjshanba kuni ul hazrat xizmatlarida Gozurgohdin Dasht yuzi bila Xiyobon sori boriladur erdi. Sayyid G'iyoskim, ul bog'ning tamiri va bog'bonligi ang'a mutaayyin erdi, yo'lda yo'luqtikim, arobalarg'a ulug'roq sarv yig'ochlarin bog'lardan sotun olib, qo'ngarib yuklab, "Jahonoro" bog'iga eltadur erdi. Ul Hazratg'a salom berib, iltifot qilib, mutoyaba bila dedilar:

– Yana hech sarv yig'ochi qoldimu? Ne, buyla sarv yig'ochi yuklabsen, oyo necha yig'och bo'lg'ay? Ul dedikim: Sanabbiz, yuz to'rt adaddur. Alar dedilarkim: Ajab adaddur. Faqir (Alisher Navoiy – Sh.H., G.Sh.) dedikim: Munosib adaddur, nevchunkim, "qad" adadi bila munosibdur. Alar dedilarkim: – Rostdur, – dag'i faqirni (Alisher Navoiyni – Sh.H., G.Sh.) tahsin qildilar [11,18-19].

Yana bir dalil. Ulug' kishilar o'z hovli-joylaridan o'zlariga manan yaqin kishilar gul va daraxt ko'chatlarini ekib, mo'jaz bog' bunyod qilishlari uchun yer ajratib berganlar. Bizning ushbu mulohazamiz "Xamsutul-mutahayyirin"dagi hayotiy lavhalar bilan tasdiqlanadi. Manaqibdan o'qiymiz: "Fanoiyya" bog'chasin yasardakim, ul Hazrat (Mavlono Jomiy – Sh.H.,G.Sh.) havlilarining ichinda yer inoyat qilib berib erdilarkim, faqir o'ziga muxtasar manzil yasabmen» [11,16]. Hazrat Jomiy o'z hovllari ichidan Navoiyga yer tortiq qiladilar. Alisher Navoiy hovlining o'zlariga in'om qilingan qismiga gul va daraxtlar ("rayohin va ashjor") ekishni zamonasining epchil va ishbilarmon, ammo tabiatan o'jar va bir oz qo'rsroq bog'boni Darvesh Hoji Irqbadanga topshiradilar. Mavlono Jomiy ijodiy ishdan bo'shagan paytlarida dam olish, muborak zehnlarni charxlash maqsadida bog'bonning ishini kuzatadilar, unga ayrim nihollarni o'tqazish uchun joy ko'rsatadilar. Tabiatan o'jar Darvesh Hoji allomaning iltifotlariga javoban sarkashlik qiladi. U kishining maslahatlaridan bo'yin tovlab, Mavlono Jomiy bilan bahslashuv-tortishuvlargacha borib yetadi. Uning bunday xatti-harakati, betga choparligi shayxi murshidga xush kelib, Mavlono Jomiy muloyimlik va xushsuxanlik ila bog'bon bilan bahsda davom etadilar: «Bir kun yig'ochqa alar yer ta'yin qilibturlar. Devona bog'bon inod yuzidin debturkim: «Munda ekmasmen». Alar inbisot bila debturlarkim: «Nevchun ekmassen?». Ul debturkim: «Rajadin tashqaridur, tongla cherik kelsa, Mir Shayxim (Alisher Navoiyning «yori azizi» iste'dodli shoir Shayxim Suhayliy – Sh.H.,G.Sh.) bog'bonliqda voqif kishidur, ko'rib e'tiroz qilg'usidur». Alar debturlarkim: «Bog'cha Shayximning emas, Alisherningdur, ul e'tiroz qilmag'usidir».

Cherik shahrga kelgandin so'ngra Darvesh Hojining tundliqlaridin as'hob naqlar qilurlar erdi. Ul hazrat dag'i zavqu nishot yuzidin ul yig'ochni ko'rguzub, o'tgan hikoyatnikim, alar bila Darvesh Hoji orasida voqe' bo'lg'ondur, naql qilur erdilar» [11,16-17].

Nuriddin Abdurahmon Jomiy hayotidan keltirilgan ushbu lavhada darvesh siyrati-komil inson axloqiga xos muhim bir xususiyat-hilmning g'azabdan g'olib kelishi mukammal aksini topgan.

Mavlono Jomiy mamlakat hukmdoridan tortib yuksak martabali amirlar, oliyshon vazirlar e'tiborida turgan ulug' inson edi. Shunday yuksak shuhrat egasining bevosita o'ziga tegishli mulk ichida oddiy bog'bonning o'jar va qo'rs muomalasiga, iltifotsizligiga javoban odob doirasida, beg'araz nazokat bilan bahsga kirishishida cheksiz ulug'vorlik, shafqat, yumshoqtabiatlilik, xokisorlik, daryodillik kabi ma'naviy go'zalliklar mujassamlangan. "Xamsatul-matahayyirin" matnidan keltirilgan hayotiy lavha yana bir muhim ilmiy-amaliy qimmatga ega. O'z kasbining bilimdoni Darvesh Hoji Irqbadan o'z ishini chin dildan bajarar ekan, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy zamonasining o'zbek va fors-tojik tillarida devon tuzgan istedadli shoir Shayxim Suhaylini bog'bonlik sohasida o'zidan ham mukammalroq mutaxassis sifatida etirof etadi. Demak, temur va temuriylar davrida maxsus dehqonchilik va bog'bonlik kasbi bilan shug'ullanmagan marifat ahli (shoir, olim v.h.) ham gul va ko'chatlar ekish va ularni parvarish qilib o'stirish sir-asrorlari, qonun-qoidalaridan yetarli xabardor bo'lganlar. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida bunday tarixiy, hayotiy lavhalar salmoqli o'rin tutadi. Fikrimizcha, ulug' mutafakkir asarlarini sinchiklab o'rganib, ularning mohiyatini bugungi avlodga yetkazsak, yosh avlod qalbida tabiatga muhabbat va daxldorlik tuyg'usi mustahkam qaror topadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotkan "yashil makon", "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida jadal rivojlanishni taminlashga,

oqilona ijtimoiy-ekologik siyosat olib borib, kutilgan natijaga erishishda kuchli ruhiy-manaviy madad beradi.

Temur va temuriylar davrida yovvoyi qushlarni qo'lga o'rgatish, boqish va parvarish qilish, ularni ov jarayoniga tayyorlash bilan alohida kasb egalari shug'ullangan. Hazrat Alisher Navoiyning do'sti va ustози Darvesh Sayyid Hasanning otasi Ardasher temuriy hukmdor Boysung'ur Mirzo saroyida shu hunar bilan mashg'ul bo'lgan: «Alarning otasi Ardasher Boysung'ur mirzo mulozimi erkandur. Qushchilik shevasida mulozamat qilur erkandur» [11,89].

Sayyid Hasanning otasi Boysung'ur mirzo saroyida dastlab qushchilik (ov qushlarini boquvchi) vazifasida faoliyat ko'rsatgan. Bu sohada mukammal tajriba hosil qilgach, qushbegilik (ovchilar boshlig'i) va undan ham yuqoriroq mansablarga loyiq ko'rilgan: «Ul fanda g'oyati muloyamat va nihoyati mahoratdin qushbegilik mansabig'a yetibdur, balki mundin dag'i ko'p biyikrak manosib kasb etibdur» [11,89]. Rasulullohning (SAV) «Ash shafqatu alo xalqilloh» («Allohning yaratilmishlariga shafqat»li bo'lish) hadisini hayoti mazmuniga singdirgan va o'z badiiy asarlarida mazkur hadisi sharifga tez-tez murojaat qiladigan Alisher Navoiy qushchilik va ovchilik kasbiga aslida unchalik rag'bat bilan qaramagan. «Mahbubul-qulub»ning «Qushchi va sayyod (ovchi – Sh.H.,G.Sh.) zikrida»gi o'ttiz beshinchi faslidan o'qiymiz: «Nafs hazzi uchun bir gunohsiz ayog'iga solib band va uzun tunlar aning azobi bila xursand. Amal rishtasin tama' ignasiga chekib, ul bezabonning ko'rar ko'zin ham tikib. Maqsudi ani sayyod qilmoq va o'zga jonlig'lar qasdig'a jallod qilmoq» [10,40-41]. Ko'chirilgan iqtibosda oddiy qushni ov qushi sifatida tarbiyalash jarayoni ixcham aksini topgan. Ayon bo'layotirki, ulug' adib bu sohadan ham puxta xabardor bo'lgan. Ov qushiga aylanguncha, beozor maxluq ming bir ruhiy va jismoniy mashaqqatni boshidan kechirgan, kechayu kunduz qiynoqlarga duchor qilingan. Oyoqlariga band solingan, ko'zlari tikib qo'yilgan va hokazo. Alisher Navoiy qanotli jonivorning qiynoq va uqubatlar girdobiga tashlanib, unga ov odobini o'rgatish jarayonini aks ettirar ekan, qushchining ruhiyati manzaralarini «amal rishtasi», «tama' ignasi» istioralari vositasida mohirona chizadi.

Alisher Navoiy talqinicha, inson amalu nafs taqozosi, shohdan yoki bekdan in'om tama'si ilinjida shunday shafqatsizlikka qo'l uradi. Sayyodning dashtu vodiylarda sarsari yugurib, g'aflatda qolgan bir necha ojiz jonivorni ovlashi va ularni so'ymasdan burun qanotini sindirishi, qo'ltig'ini yorishi hamda bundan o'zi zavq olishini adib ichdan achinib tasvirlaydi: «Necha mundoqningkim, qonin to'kdi va qo'ltug'in yorib, qanotin so'kti. Fitrokiga bog'lab uyiga yondi, o'zi va qushi qilg'onlarg'a quvondi» [10,41].

Insoniy munosabatlarda orifona ehtirom, lutfu madoro tarafdori bo'lgan, xoksorlikni umri mazmuniga singdirgan Alisher Navoiyga qushchi va ovchilar tabiatidagi manmanlik, o'ziga bino qo'yish, dabdabayu hashamatga o'chlik, nazarga tashlanib turuvchi suratparastlik xislatlari ma'qul tushmagan. Bizning mazkur mulohazamiz «Majolisun-nafois»dagi quyidagi qaydlar bilan tasdiqlanadi: «Mavlono Nosiriddin Ahmad Hojibek mulozimdur. Otasi donishmand va muttaqi va valoyat shior kishi ermish. Ammo o'zi sipohiyliqqa havasnok va takallufotqa rog'ib kishidur» [9,154]. Tazkiradan ko'chirilgan iqtibosga ahamiyat beraylik. Har bir shaxs haqida mulohaza yuritganida uning nasl-nasabiga, odamiyligiga; o'z sulolasiga xos ezgu amallarni davom ettirayotganligi yoki ettirmayotganligiga jiddiy e'tibor qaratadigan Alisher Navoiy Mavlono Nosiriddinning otasi bilimdon, dono, parhezkor, gunoh

ishlardan o'zini saqlay olgan, halol ish tutuvchi, avliyosifat inson ekanligini alohida ta'kidlaydi. «Majolisun-nafois»ning oltinchi majlisida tavsifi berilayotgan shaxsning bevosita o'ziga daxldor bitiklarning otasi ta'rifidan so'ng «ammo» zidlov bog'lovchisi bilan boshlanishidan ayon bo'ladiki, ota xilqatidagi hamida sifatlar o'g'ilning umr daftarida davom etmagan. O'g'ilning tabiatida amalparastlik mayli baland. Hashamga, baravj marosimlarga, yuqori pag'onalarga, ulug'vorlikka da'vogarlik hissi ustuvor.

Mavlono Nosiriddin tabiatiga xos ayni xususiyatlar navbatdagi jumlada yanada yorqinroq ochiladi: «Doyim turkcha aytib qush solo otlang'ay va tablboz bog'lab beliga bahli sanchqay va rangin otlarg'a minarg'a mayl qilg'ay» [9,154]. Keltirilgan parchada Mavlono Nosiriddinning to'ralarga xos savlat to'kishi, turfa xil otlarni minib o'zini elga namoyish qilishga ishtiyoqmandligi, ovchi qushlarini olib, ovchilar uchun belgilangan dovul, maxsus nog'orani («tabl») otning qaptaliga, ovchilar kiyadigan maxsus zarnigor charm qo'lqopni esa o'z beliga bog'lab ovga otlanish paytidagi mutakabbir qiyofasi o'quvchi ko'zi oldida usta rassomday jilolantirilgan. Nozikfahm ijtimoiyotchi Alisher Navoiy ifodasi hayot haqiqatiga to'la uyg'unligi bilan ham muhim ilmiy qimmat kasb etadi: «Bovujudi bu ishlar tab'i yaxshidur. Bu yaqinda andin bir bayt naql qildilar. Imkoni borkim, Samarqand sho'x va xabislari anga bu baytni bog'lamish bo'lg'aylar. Ul bayt budurkim;

Tubuchoq abrashe agaram zeri zin buvad,
Mulki jahon maro hama zeri nigun buvad [9,154].

Mazmuni: Agar ostimda egarlangan ot bo'lganda edi, jahon mulklari qo'l ostimda bo'lardi [9,273].

Mazkur bayt har ikki holatda ham, ya'ni Mavlono Nosiriddinning o'z ijodi mahsuli bo'lsa ham yoki Alisher Navoiy faraz qilganlaridek, Samarqand «sho'x va xabislari» tomonidan to'qilib, unga nisbat berilgan bo'lsa ham tasvir asosida turgan timsol shaxsiyatini yorqin namoyon qila oladi. Va ulug' adib tomonidan yuqorida taqdim qilingan badiiy, andak hajviy-kinoyaviy tasvir mohiyatiga to'la muvofiq keladi.

Olimlarning aniqlashlaricha, moddiyatning tadrijiy takomili qonuniyati natijasida bundan uch milliard yil ilgari yerda hayot vujudga kelgan. Ibtidoiy inson faoliyati ov qilish, baliq tutish bilan boshlangan. Qadimgi ajdodlarimizdan qolgan eski qo'lyozmalarda ov va ov qilish san'ati haqida qimmatli fikrlar yozib qoldirilgan. Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari shunday mo'tabar manbalardan biridir. Ovchilik qadimul-ayyomdan turkiy xalqlarning turmush tarzidan keng o'rin olgan. Shundan bo'lsa kerak, xalqimizning qo'shiq va dostonlarida ov lavhalari tasviriga yo'naltirilgan badiiy parchalarga tez-tez duch kelamiz. Binobarin, «Shirin va Shakar» dostonidan o'qiymiz:

Shakar o'g'lon minib otning beliga,
Avval ovga bordi Chibich ko'liga.
O'qu yarog'ini olib qo'liga.

Shunday ekan, nega Alisher Navoiyning ovchi va qushchilarga munosabati bu qadar keskin? Ezgulik va go'zallik, mehr-oqibat, shafqatu muruvvat shaxsiyatining barqaror sifatiga aylangan ulug' mutafakkir insonning hayvonot olamiga ham zo'ravonlik o'tkazishiga xayrixohlik ko'rsatmagan.

Ulug' insonparvar ijodkor yaratgan o'lmas qahramonlar – Farhodu Majnunlarning hayvonlar bilan tillashishi zamirida ham teran ma'no bor.

Majnunning ohular bilan munosabati talqiniga bag'ishlangan satrlarni his-hayajonsiz mutolaa qilish qiyin.

Farhod Salosil qo'rg'onida tutqunda, zanjirlar bo'g'ovida yashayotganida tog'lar uning holiga zor-zor yig'laydi. Tog' va dasht vahshiy hayvonlari Sulaymon payg'ambarga bo'ysunganidek uning farmonlarini bajaradi. Qaerga borsa, qushlar uning boshiga qanotlari bilan soya solib boradilar. Butun vahshiy hayvonlar uning ortidan qo'shınday ergashadi. Ulug' mutafakkirning suyukli qahramoni goho yo'lbars va qoplonni sevib erkalasa, goho o'z arzi ahvolini bo'rilarga so'ylaydi. Qulonlar bo'ynidan quchoqlar ekan, oy yuzli Shirinning sochlari bo'ynimga bog'landi, deya o'ylaydi. Kiyiklar davrasiga tushar ekan, o'hu ko'zli, mushkin bo'yli o'z ma'shuqasi xayoli bilan band bo'ladi. Quyvonlar uyqusiga qarab sevgilisining uning ahvolini bilib-bilmaslikka olib yotganini; kakliklarning bitta-bitta odim otib yurishlarida ra'no bo'yli go'zalining sayr etishlarini ko'z oldiga keltiradi. Qorabag'irni qo'yniga bosib, unga o'zining kuygan yurak-bag'ri haqida hikoya qilsa, qumriga tikilib, unga o'z bo'ynidagi zanjirlar haqida hikoya qiladi. Munozara yuritilayotgan bobning davomidan o'qiymiz:

Debon **hudhud**ga soz aylab fig'onlar,

Boshiga o't tutash qondin nishonlar.

Qilib **bulbul**g'a ul so'z ichra bir-bir.

Ani ishq o'ti ne qilg'onin taqrir... [5,249]

Mazkur tamsiliy ifodalar zamirida inson va tabiatning birligi hamda yaxlitligi, ularni ayri holda qarash mumkin emasligi g'oyasi yotadi.

Ulug' mutafakkir atrof-muhit muhofazasini inson kamolotining muhim belgilaridan biri sifatida qaragan.

Hayvonot olamini asrash, jonzotsevarlik va ularga rahm-shafqat nazari bilan qarash tamoyillariga Alisher Navoiyning deyarli har bir asarida jiddiy ahamiyat beriladi.

«Sab'ai sayyor»ning o'ttiz beshinchi bobida podshoh Bahrom boshchiligidagi vahshiyona shikor manzarasini tasvirlar ekan, ulug' mutafakkir ovchilarning jonivorlarga haddan ziyod jabr ko'rsatganliklarini kuyunib yozadi. Alisher Navoiy satrlarini o'qir ekanmiz, qiynalib jon berayotgan tilsiz jonzotlarning og'riqlarini qalban his etamiz. Bahrom Go'r va uning mulozimlari o'qidan vahimaga tushgan, jon talvasasida tillarini osiltirib duch kelgan tarafga qochayotgan jonivorlarning ayanchli holati insonparvar ijodkor tomonidan juda ta'sirchan badiiy aks ettirilgan.

Mo'rdek tushti ul sipoh aro sho'r,

Kirdilar yerga barcha o'ylaki mo'r [7,326].

Keng o'tloqni hayvon qonidan lolazorga aylantirgan va oxir-oqibat arkoni davlati bilan birga o'zini ham yer yutib, nobud qilgan shoh Bahromning achchiq qismati barcha zamonlar uchun saboq emasmi?! Darvoqe, qanchalik ulug' tarbiyaviy ibrat bor «Xamsa»ning yuqoridagi lavhalarida.

Alisher Navoiy talqinicha, hayvonot va nabotot olamiga befarq, ehtirossiz munosabatda bo'lish ma'naviy karaxtlikdir. Shum nafs xohishi bilan ish ko'rib, tabiatga tajovuz qilish, mo'jizaviy jonzotlarini qurbon etish insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan noqisligidir. Ulug' mutafakkirning insonparvarlik va hayotsevarlik tamoyillariga ko'ra kim, qaysi sohada faoliyat ko'rsatmasin, uning xulq-atvorida, tabiatida mehr-muruvvat, shafqatu marhamat tuyg'ulari barq urib turishi zarur. Ana shundagina insonning inson bilan hamda uning tabiat bilan munosabatlarida muvofiqlik yuz beradi. Ammo achinarlisi shundaki, aksariyat ovchilarning faoliyatida aysh-ishrat, shaxsiy huzur-halovat, nafs istagi barcha narsadan ustun qo'yiladi: «Muncha mazmun amrig'a bois nafs komi, xoh emgagi, xoh tomoshasi, xoh kabobi, xoh

bek in'omi» [10,41]. Ovchining tabiatida tajovuzkorlik bor, unda iste'molchilik, nafsoniy hirsga berilish mayli baland. Shuning uchun u gunohsiz bir maxluqning oyog'iga band soladi, uzun tunlar uning azob tortishidan rohatlanadi: «Nafs hazzi uchun bir gunohsiz ayog'iga solib band va uzun tunlar aning azobi birla xursand» [10,40]. Buyuk mutafakkir nafratiga sabab bo'lgan masalalardan yana biri quyidagi misralarda aksini topgan:

Qo'nolg'a olib qayda qo'nsa diram,
Ot arpasi ham, qushig'a to'ma ham [10,41].

Alisher Navoiyning qushlar dunyosiga, umuman, tirik jonzotlarga g'amxo'rlik hissi junbushga keladi. Bunday maylni fasl xotimasidagi masnaviyda ham yorqin ko'rish mumkin. Umr mazmuni shafqatsizlik asosiga qurilgan, nafsoniy hirsga mukkasidan ketgan ovchilarni shoir inson qatoriga kiritishdan ham hazar qiladi:

Bular boisi barcha nafsoniyat
Ki, anda doxil insoniyat [10,41].

Har bir kasb sohibining jamiyatda o'z o'rni va odobi bor. Jumladan, qushchi va ovchilarning ham. Shundan bo'lsa kerak, «Holoti Sayyid Hasan Ardasher»da Alisher Navoiy qushchilik kasbida «biyik maqomlar kasb etgan» darvesh Sayyid Hasan otasini yuqori pag'onada madh qiladi:

Ko'p hunarliq kimsa shahlarga etar damsozliq,
Qush tilin bilgan Sulaymonga etar hamrozliq [11,89].

Sulaymon – bani Isroil qavmidan bo'lgan Dovud payg'ambarning o'n ikkinchi kenja o'g'lidir. «Qisasi Rabg'uzyi» ma'lumotlariga ko'ra, Dovud alayhissalom ham, Sulaymon shoh ham benihoya kamtar va kamsuqum turmush tarziga qanoat qilishgan. Birlari davlat ishlaridan bo'sh vaqtlarida temirchilik bilan shug'ullanib, kunlik maoshini ta'min etgan. Birlari esa Yer va ko'k orasidagi Allohning jami yaratilmishlariga sulton bo'la turib, tol novdalaridan savat to'qib, sotib, undan kelgan daromadga kanoat qilgan. Hatto, o'sha foydaning teng yarmini ham beva-bechoralar, yo'qsillar bilan baham ko'rishgan: «Taqi aymishlar, tol yig'ochlar yig'ib, sabat to'qub, kilim (juldur kiyim) kib (kiyib), sabat sotar erdi. Yarim bahosin sadaqa qilur erdi, yarim bahosig'a arpa etmakni (nonni) olib yeyur erdi. Taqi aytur erdi: «Bu mulk Tengrining turur. Xaloyiqg'a beraturman, ammo men o'z qizg'anchimni (ish haqi, foyda) yeyurman». Talmeh san'ati ostida yashiringan ayni axloqiy-ma'naviy fazilatlar «Holoti Sayyid Hasan Ardasher»da ko'tarilgan bosh masala mohiyati bilan har tomonlama uyg'undir. Haq subhonahu va taoloning amri bilan yuzlab qushlar Sulaymon alayhissalom qayerga yursa, boshi uzra qanotlarini soyabon qilib borgan. Shohning oltinu kumushdan bunyod etilgan, bir yig'och (6 km) maydon ichida turgan taxti uzra ham qushlar saf tortib, soyabon vazifasini ado etgan [18,34]. Qushchilik hunarida kamolot kasb etgan Ardasher tavsifida bundan ortiq tasviriy vositani (talmeh) topish mushkulki, Alisher Navoiy badiiy ifoda yaratishda mahorat ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 8-жилд. – Т.: Фан, 1991. – 544 б.
2. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 9-жилд. – Т.: Фан, 1992. – 356 б.
3. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 10-жилд. – Т.: Фан, 1992. – 448 б.
4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 12-жилд. – Т.: Фан, 1996. – 326.
5. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. – Т.: Фан, 1997. – 284 б.
6. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Т.: Фан, 1998. – 304 б.
7. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. – Т.: Фан, 1999. – 236 б.

8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1983. – 656 б.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.
10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. – Т.: Фан, 1984. – 624 б.
11. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 4-том. – Т.: Фан, 1985. – 636 б.
12. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2016. – 536 б.
13. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2016. – 480 б.
14. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 236 б.
15. Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1991. – 273 б.
16. Ҳайитметов А. Ҳаётбахш чашма. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. – 166 б.

ALISHER NAVOIY IRFONIIY OLAMINING YANGICHA TALQINI

Obidjon Karimov

filologiya fanlari nomzodi, dotsent, NamDU

E-mail: k_obitjon@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YNH1882

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunos Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasi Alisher Navoiy irfoniiy olamining yangicha talqini nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Olimning ilmiy konsepsiyasi uch yoʻnalishda: 1) Alisher Navoiy asarlarining islomiy-irfoniiy asoslari haqidagi qarashlar; 2) irfoniiy hikoyatlar tahlili hamda 3) tasavvufiy obraz va ramzlar talqini kesimida tadqiq qilingan.

Kalit soʻzlar: irfon, tasavvuf, futuwwat, dunyo, timsol, obraz, badiiy talqin.

Annotation: The article analyzes literary scholar Nurboy Jabborov's monograph "Maoniy Ahlining Sohibqironi" from the perspective of a novel interpretation of Alisher Navoi's mystical worldview. The scholar's scientific concept is examined in three main directions: 1. Views on the Islamic-mystical foundations of Alisher Navoi's works; 2. Analysis of mystical narratives; 3. Interpretation of Sufi symbols and imagery.

Keywords: mysticism, Sufism, futuwwa, world, symbol, imagery, artistic interpretation.

Oʻzbek mumtoz adabiyotining tasavvufiy va falsafiy asoslari boʻyicha salmoqli tadqiqotlar yaratilgan. Bu yoʻnalishda rus olimi Ye.E.Bertels, oʻzbek tasavvufshunoslari N.Komilov va I.Haqqul tadqiqotlari, ayniqsa, alohida ajralib turadi. Mazkur olimlar ilmiy qarashlarining oʻzbek tasavvuf adabiyoti, xususan, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy adabiy merosini oʻrganishdagi ahamiyati katta. Biroq tasavvuf adabiyoti va Alisher Navoiy irfoniiy olami shunday ulkan ummonki, uni nafaqat muayyan olimlar, hatto mutaxassislarning bir necha avlodi ham oxirigacha oʻrganib chiqishi imkonsizdir. Keyingi davrlarda bu yoʻnalishda olib borilayotgan tadqiqotlar orasida filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasi alohida oʻrin tutadi.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622